

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI  
TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI  
BUXORO FILIALI**

**«SUV XO'JALIGINI AVTOMATLASHTIRISH VA MEXANIZATSIYALASH»  
FAKULTETI**

**«TEXNOLOGIK JARAYONLAR VA ISHLAB CHIQARISHNI AVTOMATLASHTIRISH  
VA BOSHQARISH» KAFEDRASI**

5311000 –Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (suv xo'jaligida) yo'nalishi bo'yicha

**“Alisher Navoiy” nasos stansiyasini  
mikrokontroller yordamida boshqarish  
mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajardi:** **4/1 TJ va ICHAB guruhi  
talabasi Sharafov Sharof**

**Rahbar:** **assistant Xayitov A.**

Himoyaga ruhsat etildi  
“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2018y.

«TJ va ICHAB» kafedrasi mudiri v.b.: \_\_\_\_\_ Usmonov J.I.

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUXANDISLARI INSTITUTI  
BUXORO FILIALI**

**«SUV XO'JALIGINI AVTOMATLASHTIRISH VA MEXANIZATSIYALASH»  
FAKULTETI**

**«TEXNOLOGIK JARAYONLAR VA ISHLAB CHIQARISHNI  
AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHQARISH » KAFEDRASI**

**5311000 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish  
va boshqarish (suv xo'jaligida) yo'nalishi bo'yicha**

**4/1 TJ va ICHAB guruhi**

**«Tasdiqlayman»  
Kafedra mudiri  
«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2017 y.**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ**

Talaba Sharafov Sharof

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: “Alisher Navoiy” nasos stansiyasini mikrokontroller yordamida boshqarish.

Kafedra majlisida «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2017 y. tasdiqlangan (bayon №\_\_\_\_).

2. Bitiruv malakaviy ishini topshirish muddati: 5 iyun 2018 yil
3. Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun zarur ma'lumotlar: “Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish”, “Meliorativ tizimlaridan foydalanish”, “Avtomatik boshqarish nazariyasi”, “Suv xo'jaligini avtomatlashtirish”, “Avtomatik tizimlarni loyixalash”, “Sug'orish tizimlari” fanlar asoslari.
4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqilgan masalalar ro'yhati): kirish, masalaning qo'yilishi, ish maqsadi, adabiyotlar tahlili, texnologik jarayonning tavsifi, jarayonni avtomatlashtirishning funksional sxemasini ishlab chiqish, nazorat-o'lchov asboblarini va ijrochi mexanizmlarni tanlash, rostlash konturini sozlash va uni tadqiqot qilish, boshqarish tizimining strukturali sxemasini ishlab chiqish va uning dinamik xarakteristikalarini aniqlash, ABTni joriy etish bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni hisoblash, mehnat muhofazasi va ekologiya masalalarini ishlab chiqish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va saytlar ro'yhati, ilova.

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi	Imzo	
			topshiriq berildi	topshiriq bajarildi
1	Asosiy qism			
2	Xayot faoliyati xavfsizligi			

6. Bitiruv ishini bajarish rejasi:

№	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati, sana	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
1	Mavzu bilan tanishish, adabiyotlar ustida ishlash	Noyabr	
2	Bitiruv malakaviy ishining I - bobি ustida ishlash	Noyabr-dekabr	
3	Bitiruv malakaviy ishining II - bobи ustida ishlash	Yanvar-mart	
4	Bitiruv malakaviy ishining III - bobи ustida ishlash	Mart	
5	«Xayot faoliyati xavfsizligi» bobи ustida ishlash	Aprel	
6	Bitiruv ishini rasmiylashtirish	May	
7	Bitiruv ishi himoyasiga tayyorlanish	25may -5 iyun	
8	Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish	_____iyun	

Bitiruv ishi rahbari: \_\_\_\_\_ Hayitov A. N.

Topshiriqni bajarishga oldim:\_\_\_\_\_

Topshiriq berilgan sana: «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2017 yil

## **ANNOTATSIYA**

Ushbu bitiruv malakaviy ishi “Alisher Navoiy” nasos stansiyasini mikrokontroller yordamida boshqarishga bag’ishlangan.

Bitiruv malakaviy ishining tushuntirish xati quyidagi qismlardan iborat: kirish, nazariy qism (1- chi bob), asosiy qism (2- chi bob), mehnat muxofazasi qismi (3- chi bob), xulosa, adabiyotlar.

Kirishda qishloq xo’jaligida tabiiy suvlardan foydalanish imkoniyatlari, qishloq xo’jaligida suv ta’minoti muammolari ko’rib chiqilgan va mavzuning aktualligi, masalaning qo’yilishi, bitiruv malakaviy ishining maqsadi keltirilgan.

1-chi bobda suv ta’minot tizimlarning qo’llash xususiyatlari va afzalliklari, suv ta’minot tizimlarida qo’llaniladigan nasos turlari, nasos stansiyalarning avtomatlashtirishning nazariy asoslari keltirilgan.

2-chi bobda avtomatik nasos stansiya asosida quduqdan suv bilan ta’minalash tizimning tarkibi, funksiyalanishi, sxemasi keltirilgan, tizimda ishlatiladigan avtomatikaning texnik vositasi aniqlangan va boshqaruv tizimining hisobi bajarilgan.

3-chi bobning nomi: «Mehnat muhofazasi va hayot xavfsizligi». Tushuntirish xatining shu qismida texnika xavfsizligi, yong’in xavfsizligi, fuqaro muxofazasi savollari ko’rib chiqilgan.

## **MUNDARIJA**

<b>Kirish</b>	
<b>I BOB. Nazariy qism.</b>	
1.1.	Nasos stansiyalari haqida umumiy tushunchalar.
1.2.	Nasos stansiyalarining elektrodvigatellari va elektroenergiya ta'minoti.
1.3	Nasoslarni birgalikda ishlashi. Nasoslarni parallel va ketma-ket ulash
<b>II BOB. Asosiy qism.</b>	
2.1.	“Alisher Navoiy” nasos stansiyasi sxemasi va tasnifi.
2.2.	Nasos stansiyasini avtomatlashtirish.
2.3.	Mikrokontroller va nazorat o`lchov asboblarini tanlash va asoslash.
2.4.	Nasos agregatini avtomatik boshqarish jarayonini avtomatlashtirish vositalari ro`yxati (spetsifikatsiya)
2.5.	Nasos agregatini avtomatik boshqarishning matematik modelini ishlab chiqish.
<b>III BOB. Hayot faoliyati xavfsizligi.</b>	
<b>Xulosa.</b>	
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.</b>	
<b>Illova.</b>	

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 24 fevraldag‘i 39-sonli “2013-2017 yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha Davlat dasturining so‘zsiz bajarilishini ta’minlashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida viloyatda chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. [1]

Sizga ma’lumki, Buxoro viloyatida 275,1 ming hektar sug‘oriladigan maydon bo‘lib, shundan 109,6 ming hektar paxta, 65,6 hektarida g‘alla, 21,0 ming hektaridan ortiqroq maydonda bog‘-tokzor, 33,5 ming hektar boshqa ekinlar va 45,4 hektari aholi tomorqalaridan iborat.

Viloyatdagi mavjud sug‘oriladigan maydonlarning 237,7 ming hektari, yoki 87 foiz qismi turli darajadagi sho‘rlangan yerlardan iborat. Shundan, ming 69653 hektari o‘rta va kuchli sho‘rlangan maydonlarni tashkil qiladi. Meliorativ kadastr ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda viloyat bo‘yicha 37,4 ming hektar ( 13,6 %) yaxshi, 211,4 ming hektar (76,8 %) qoniqarli hamda 26,3 ming hektar ( 9,6 %) meiliorativ nuqtai nazardan qoniqarsiz maydonlarni tashkil qiladi.

Viloyatning sug‘oriladigan maydonlari uchun asosiy suv manbai bo‘lib Amudaryo xizmat qiladi. qisman Zarafshon daryosidan suv resurslari mavjud bo‘lgan davrda suv olish kutiladi. Suv taqchilligi kutiladigan davrda zovur va yer osti suvlaridan foydalanish choralari ko‘riladi.

2013 yilda viloyatda suv resurslaridan samarali foydalsh maqsadida amalga oshirishi rejalashtirilgan suvni tejaydigan texnologiyalar, ya’ni 110 hektar maydonda tomchilatib sug‘orish, 25 hektar g‘o‘za maydonida egatga plyonka to‘shab va 50 hektar maydonda o‘qariqlar o‘rniga egiluvchan quvurlar yordamida sug‘orish texnologiyasini qo’llash belgilangan edi. Lekin, bu ishlarni amalga oshirishga ma’sul tashkilot va korxona rahbarlarining ma’suliyatsizligi sababli amalga oshirilmay qoldi. Shu bilan birga, biz tomonidan ham bu ishlarga e’tiborsizlik bilan qaralganligini tan olamiz.

2014 yilda suvni tejaydigan texnologiyalar, ya’ni tomchilatib, g‘o‘zani egatga plyonka to‘sab va o‘qariqlar o‘rniga egiluvchan quvurlar orqali sug‘orishni tashkil qiluvchi fermer xo‘jaliklari aniqlanib, fermerlar kesimida manzilli dasturlar ishlab chiqildi. Dasturda suvni iqtisod qiluvchi texnologiyalar uchun zarur mablag‘larni fermer va boshqa suv iste’molchilarining o‘z hisobidan yoki kreditlar asosida amalga oshirilishiga aniqlik kiritildi. Hozirgi kunda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha loyiha ishlari amalga oshirilishi belgilangan.

O‘zbekistonning bozor munosabatiga kirib borish jarayonida suv resurslaridan mukammal va oqilona foydalanishga bo‘lgan alohida e’tibor qishloq xo‘jaligi yetakchi tarmoqlarining jadal rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. O‘zbekiston Respublikasi 1993 yilda qabul qilingan “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risidagi” qonunning 7-bobi “Suvdan foydalanish turlariga” bag‘ishlangan bo‘lib, unda suvdan asosiy maqsadga muvofiq umumiy va maxsus foydalanish borligi qayd etilgan. Ushbu qonunga ko‘ra suvdan umumiy foydalanish deganda suvning holatiga ta’sir qiladigan inshootlar va texnikaviy qurilmalar qo‘llamay foydalanish, suvdan maxsus foydalanish deganda esa inshootlarni yoki qurilmalarni qo‘llash yo‘li bilan foydalanish tushuniladi. Bundan tashqari qonunning 111-moddasi aynan suv resurslaridan mukammal foydalanish masalasiga bag‘ishlangan. Ushbu masalani dolzarbligi umum davlat nuqtai nazaridan respublika daryo havzalarining ayrim suv xo‘jalik tumanlari bo‘yicha qo‘shimcha dalillar talab etilmaydi. Bizga ma’lumki hozirgi vaqtida O‘zbekiston hududida suv va suv resurslarini boshqarish yildan yilga murakkablashib bormoqda. Suv resurslarini boshqarishni to‘g‘ri va aniq olib borish uchun har xil chora-tadbirlar ko‘riladi va iqtisodiy jihatdan optimal variantlarini tanlab olinib, ya’ni orasidan kam mablag‘ sarflanadigan va suv resurslarini boshqarishni iqtisodiy jihatdan yuqori samara beradigan variantlarini qo‘llash talab etiladi.

## **Bitiruv malakaviy ishning dolzarbliji.**

Nasos stansiyasini avtomatlashtirish va mikrokontroller bilan boshqarish loyihasini ishlab chiqish, bugungi zamон talablariga javob beradigan avtomatika vositalari va nazorat o'lchov asboblarini qo'llagan holda jarayon boshqarish eng asosiy ko'rsatgichlardan biridir.

Bugungi kunda nasos stansiyalarini avtomatlashtirish sohasidagi asosiy urinishlar boshqaruvchi hisoblash mashinalari va mikroprotsessorlarni qo'llash asosida texnologik jarayonlarni optimallashtiruvchi avtomatik sistemalarini yaratishga qaratilgan. Bunda ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlari va holatlarini boshqarishni avtomatlashtirish haqidagi masala, texnologik jarayon va uskunalarni avtomatik tashxislash sistemalarini yaratish, ishlab chiqarish avtomatlari va apparatlarini yaratish turadi.

## **Bitiruv malakaviy ishning maqsadi**

Nasos stansiyalar ishini avtomatlashtirish va boshqarishni yo'lga qo'yish, mikrokontrollerni qo'llash, zamonaviy nazorat o'lchov asboblari (NO'A) ni o'rnatish va ulardan samarali foydalanishni o'rganish, dispatcherlik punktlari ishini tashkillashtirish va markaziy boshqarish.

## **Bitiruv malakaviy ishning asosiy vazifasi**

Ishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Nasos stansiyasini asosiy parametrlarini boshqarish va rostlash;
- Texnologik jarayonini olib borishning avtomatik prognozini tuzish;
- Nasos stansiyasini mikrokontroller orqali boshqarish loyihasini tuzish;
- Boshqariladigan asosiy parametrlarining matematik modelini tuzish;
- Nasos stansiyalarini ishlashini davomiyligini oshirish;
- Jarayonning xavfsiz olib borilishini ta'minlash (xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga, asbob-uskunalarga va atrof muhotga ziyon yetqazib beruvchi texnologik rejimning buzilish ehtimolligini pasaytirish);
- Jarayonning ishonchlilagini oshirish va stansiya temperaturasi haqida ogohlantirish.

## **Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati**

Bitiruv Malakaviy ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, “Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish”, “Gidrotexnik inshootlar va nasos stansiyalaridan foydalanish” ta’lim yo’nalishida o’qiydigan talabalar o’z bilim va malakalarini oshirish maqsadida mazkur ish yuzasidan to’plangan barcha ma’lumotlar va hisob-kitob ishlari materiallaridan samarali foydalanishlari mumkin.

## **Foydalanilgan uslublar**

Bitiruv malakaviy ishi mavzusini keng yoritish maqsadida “Gidromeliorativ tizimlarning texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish”, “Suv xo’jaligida avtomatlashtirilgan boshqaruв tizimlari”, “Avtomatikaning texnik vositalari va elektr vositalarning montaji, sozlash va ekspluatatsiyasi”, shuningdek, “Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish”, “Nasos va nasos stansiyalaridan foydalanish” kabi fanlardan olingan bilimlar yuzasidan chuqur izlanishlar olib borildi.

## I BOB. Nazariy qism.

### 1.1. Nasos stansiyalari haqida umumiy tushunchalar.

Rele'fi murakkab baland joyda joylashgan yerlarni sug'orishda va boshqa ko'p hollarda gidromashinalar yordamida suv beriladi. Mexanik suv ko'tarish usuli tarmoq miqyosida berilgan butun maydonni, shuningdek ayrim qismlarini sug'orishda ishlatalishi mumkin.

Nasoslar yordamida suv chiqarishga mo'ljallangan gidromexanik va energetik asbob - uskunalar va gidrotexnika inshootlari majmuiga nasos stansiyasi deyiladi.

Nasos stansiyalarining asosiy asbob uskunalari ularga o'rnatilgan nasos agregatlari (nasos va elektr motori) hisoblanadi.

Nasos deb, tashqaridan uzatilgan energiyani suyuqlik oqimining bosim energiyasiga aylantirib beruvchi gidravlik mashinaga aytildi.

#### Markazdan qochma nasoslar

Markazdan qochma nasosning (1-rasm) asosiy ishchi elementi qobiq 3 ichida 1 valga o'rnatilgan, erkin aylanuvchi 2 ishchi g'ildirak bo'lib, suyuqlikniga unga kirishi o'q yunalishida va chiqishi g'ildirak kanallari orqali radius yo'nalishida bo'ladi. Ishchi g'ildirak ikkita (old va orka) gardishlar va ular orasiga joylashgan kuraklardan tashkil topgan bo'lib, kuraklar g'ildirak aylanishiga teskari tomoniga egilgan holda tayyorlanadi. Suyuqlik ishchi g'ildirakdan qobiq ichidagi 3 spiralsimon olib kelluvchi moslama yordamida 13 uzatkichga chiqariladi.

Ishchi g'ildirak aylanganda kurakpari oraligida uning uqidan gradusda joylashgan har bir m massali suyukdik hajmiga ta'sir etuvchi markazdan qochma kuch F ta'sir qiladi.

Ana shu markazdan qochma kuch ta'sirida suyuqlik g'ildirakdan chiqishi natijasida uning atrofida bosim ortadi, ishchi g'ildirak markazida bosim pasayadi (vakuum hosil bo'ladi), hamda suyuqlikning so'rish quvuridan uzluksiz kelishi ta'minlanadi.

Xozirgi kunda ahamiyati va ishslash sharoiti buyicha ko'p turdag'i xilma-xil tuzilishdagi markazdan qochma nasoslar ishlab chiqilgan.

## **Konsol turdag'i markazdan qochma nasoslar**

Konsolli markazdan qochma nasosning umumiy shakli 2.1- rasmda keltirilgan. Bu gorizontal valli bir g'ildirakli nasos bo'lib, ishchi gildiragi valning muallaq qismiga maxkamlangan uchun «konsolli» nasos deb nomlangan.

Konsolli nasosning kesimi va asosiy detallari 2-rasmda, tashki kurinishi esa 2-rasmda berilgan. Bu erda 4 ishchi g'ildirak 12 valga shponka yordamida o'rnatilib. 21 gayka bilan maxkamlangan. Qobiq 7 ichki qismi spiralsimon bo'linma shaklida bo'lib, 6 uzatkich bilan bir butun holda chuyandan quyilgan va 15 yog-vannali tayanch turimlariga boltlar bilan o'rnatiladi. Tayanch turimlariga o'rnatilgan \*3 podshipniklar 12 po`lat valning tayanchlari bo'lib, uqiy va radial hosil bo'ladigan kuchlarni qabul qiladi. Uqiy kuchlarni muvozanatlash maqsadida 4 ishchi g'ildirakning orqa lappagida 23 kuch engillatuvchi bir nechta teshikchalar kuzda tutiladi.



Nasos ichki bo'linmasini tashqi muhitdan ajratib turish uchun yog' emdirilib ip-gazlama arqondan tayyorlangan 10 halqasimon o'ramlar, 11 qopqog'i va 20 qobig'idan iborat salnik bug'ini zarur.

Ishchi g'ildiragi orqa gardishiga kuch engillatuvchi 23 teshikchalar o'rnatiladigan nasoslarda uning ichiga salnik va val orasidan havo kirishini oldini olish maqsadida salnikning 10 halqasimon o'ramlari o'rtasiga 19 gidravlik halqa o'rnatilib, unga spiralsimon bo'linmadagi bosimli suvdan beriladi va «gidravlik qufl» xosil qilinadi. Ish jarayonida salnikdan tashqariga suv oqimchasini me'yordan ortib borishi kuzatib boriladi va 11 qopqoq bilan sozlab turiladi. Ishchi g'ildirak 4 gardishlari yoni bilan 7 qobiq oraligidagi bo`shliqlardan bosimlar farqi xisobiga surish tomoniga qaytib o'tuvchi oqimchalar miqdorini kamaytirish uchun xar ikki tomoniga 2 va 3 zinchash-saqlash halqlari o'rnatiladi.

Markazdan qochma nasos va uning surish quvuri yurgizishdan avval suvga tuldirilishi lozim. Buning uchun 5 bolt olinib, teshikchadan vakuum-nasos yordamida havosi surib olinadi yoki o'sha teshikchadan suv quyib to'ldiriladi.


Monoblok ko'rinishidagi (KM) konsolli nasoslar K turdag'i nasoslarga nisbatan ancha ixcham va engil bo'ladi. Chunki nasos ishchi g'ildiragi elektr dvigatel

valining oxirgi qismiga joylashtirilib, nasosga podshipnik va yarim muftalar o'rnatilmaydi. Nasosning qobig'i elektr dvigatel flanetsi (gardishi) uchiga maxkamlanadi.



*1 rasm.* Markazdan qochma nasosning ishlash tasviri:

1-val; 2-ishchi g'ildirak; 5-spiralsimon bo'linma (olib ketuvchi moslama); 4-havo chiqarish teshikchasi bolti; 5-zichlash-saqlash halqasi; b-bosimli salnik; 7-himoya g'ilofi; S-salnik qopqog'i; 9-podshipnik; 10-yarimmufta; 11 va 14-zichlash qismlari; 12-so'rg'ich; 13-uzatkich; 16-uqiy kuchni yengillatuvchi teshikchalar



*2 rasm.* Konsolli Kturdagi markazdan qochma nasosning tuzilishi:

1-so'rgich (nasos qopqog'i bilan); 2-zichlash halqasi, 3-himoyalash halqasi; 4-ishchi g'ildirak; 5-havo so`rib olish teshigi bolti; 6-uzatkich; 7-spiralsimon bo'linmali qobiq; 8-kronshteyn; 9-himoya gilofi; 10-salnik uramlari; 11-salnik qopqog'i; 12-val; 13-sharikli podshipniklar; 14-tayanch gilofi; 15-tayanch turimi (yog` idishi bilan); 16-tayanch g'ilofi qobig'i; 17 va 18-nasos va dvigatel vallaridagi yarim muftalar; 19-gidravlik zichlash halqasi; 20-salnik qopqog'i; 21-gayka; 22-grunt buksa; 23-kuch yengillatuvchi


Konsolli markazdan qochma nasoslar qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa sohalarda keng tarqalgan bo'lib, xarorati  $85^{\circ}\text{S}$  gacha bo'lgan toza suv va boshqa noagressiv suyuqliklarni uzatish uchun mo'ljallangan. Bu nasoslar suyuqlik uzatishi  $Q=1,5 \text{ l/s}$  va bosimi  $N=9-95 \text{ m}$  chegaralarda ishlab chiqariladi. Konsolli K turdag'i nasoslarning kamchiligi:


O'qiy kuchlar nomuvozanatligi podshipniklarning ishlash muddatini qisqartiradi; kuch yengillatuvchi teshikchapar nasosning FIKni kamaytiradi; - qobig'ining vertikal tekislikda ochilishi ta'mirlashni qiyinlashtiradi, chunki so'rish quvurini ham ochish zarur bo'ladi.

Ikki tomonlama suyuqlik kiradigai D turdag'i markazdan qochma asoslar Suyuqlik ishchi gildiragiga ikki tomonidan kiradigan tuzilishda tayyorlanganligi uchun bu nasoslarni ruscha «dvuxstoronniy» so'zini birinchi xarfi «D» bilan belgilangan. Ikki tomonlama suyuqlik kiradigan D turdag'i markazdan qochma nasoslar suyuqlik uzatishi  $Q=30-3500 \text{ l/s}$ , bosimi  $N=12-137 \text{ m}$  chegaralarda ishlab chiqariladi. D turdag'i nasoslar tuzilishi mukammal va eng ko'p tarqalgan bir pogonali nasoslar turiga kiradi. Chunki ular quyidagi afzalliklarga ega: ikki tomonlama ishchi g'ildirak kullanishi hisobiga K turdag'i nasosga nisbatan ikki barobar ko'p suyuqlik chiqaradi; o'qiy kuchlar muvozanatlashgan va yachshi kavittatsion xususiyatlarga ega; qobig'i ochilishi gorizontal tekislikda bo'lganligi sababli ta'mirlashda ochish-yig'ish ancha oson.

Nasos detallarining tuzilish sxemasi 4-rasmda keltirilgan. Ishchi g'ildirak 2 ikki tomonidan tashki gardishlar va ichki tomondan 1 valga maxkamlangan gilofdan iborat.

Bosimli suyuqlikni 3 spiralsimon moslamadan so`rish qismiga qaytib oqib o'tishini kamaytirish uchun 5 zichlash halqlari ishchi g'ildirak gardishining o'ng va chap tomonlarida kichik o'lchamdagи tirqish bilan o'rnatiladi. G'ilof 7 valni himoyalash bilan birga ishchi g'ildirakni o'q bo`yicha siljishiga yo'l qo'ymaydi. Qobiqdan 1 valni chidish joylariga har ikki tomonidan 6 so'rish salniklari va 17 gidravlik halqa o'rnatilib, havo surilishga yo'l qo'ymaslik va sovitish uchun unga 16 oziqlantiruvchi quvurcha bilan 3 spiralsimon olib ketuvchi moslamadagi bosimli suvdan yuboriladi. Valning tayanchi 9 podshipniklar nasos o'qi bo`yicha ochiladi.






D turdag'i nasosning tashqi ko'rinishi va tuzilishi 5 va 6 -rasmlarda ko'rsatilgan. Nasosning so'rg'ichi va uzatkichi 1 qobiq, 2 va 3 tayanch lappaklari bilan umumiyligida bir butun quyma holda tayyorlangan. Qopqoq 4 gorizontal tekislikda yopilganligi, surg'ich va uzatkich qobiqning pastki qismiga joylashganligi nasosni ochib-berkitish, ta'mirlash va detallarini almashtirishni osonlashtiradi.

#### Ko'p pog'onali markazdan qochma nasoslar

Ko'p pog'onali nasoslarda uzatilayotgan suyuqlik bitta valga o'rnatilgan bir nechta ishchi g'ildiraklardan ketma-ket o'tadi (2.7- rasm). Ishchi g'ildiraklarning suyuqlik uzatishi bir xil, lekin nasosning bosimi esa ishchi g'ildiraklar bosimlari yigindisiga teng bo'ladi. Suyuqlik uzatishi va bosimi bo'yicha ko'p pogonali nasoslar  $Q= 1-1000 \text{ M/soat}$  va  $N=40-2000 \text{ m}$  gacha chegaralarda ishlab chiqariladi.

Bosimi pogona tarzida ortib borishini hisobga olib, bu nasoslardan ko'p pog'onali (ya'ni ruscha mnogostupenchatiy seksionniy) deb nomlanib, MS, M, MD yoki yangicha SNS, SN xarflari bilan belgilanadi (bu erda, D-«dvuxstoronniy» so'zini birinchi xarfi bo'lib, birinchi gildiragiga ikki tomonlama suyuqlik kiradi, SNS-«sentrobejniy nasos seksionniy» so'zlarining birinchi xarflari). Ko'p pog'onali MS (SNS) nasosidagi suyuqlik xarakati sxemasi 7-rasmida ko'rsatilgan.




7 rasm. Ko'p pog'onali MS (SNS) nasosidagi suyuqlik xarakati sxemasi:


1-val; 2-ishchi g'ildirak: 3-yo'naltiruvchi moslamalar; 5 va 6 bosimli va so'rish salniklari; 16-oziqlantiruvchi quvurcha; 17- gidravlik zichlash halqasi

Ko`p pogonali nasosning qobig'i bir nechta seksiyalardan tashkil topgan bo'lib, (8 va 9-rasmlar) ishchi g'ildiraklar soni seksiyalar soniga teng bo'ladi. Bu nasoslarda ishchi g'ildiraklar soni 2 tadan 10 tagacha bo'lishi mumkin. Seksiyalar oralig'ini rezina prokladka bilan zichlanadi. MS turdag'i nasoslarning kamchiligi: FIK yuqori emasligi; qobiqning vertikal tekislikda ochilishi va ochib berkitishning murakkabligi; o'qqiy kuchlarning nomuvozanatligi. O'qiy kuchlarni muvozanatlash maksadida qo'shimcha avtomatik ishlovchi kuch engillashtiruvchi 1 gidravlik lappaklar xam o'rnatiladi (9-rasm).

MS turdag'i nasoslarning kamchiliklarini bartaraf qilish maqsadida qobig'i gorizontal tekislikda ochiladigan M, MD (SN) nasoslari yaratilgan (10-rasm). Bu nasoslar ishchi g'ildiraklari kirish qismi bir-biriga qarama-qarshi juft holda joylashtirilganligi sababli o'qiy kuchlar muvozanatlashgan.




8-расм. Кўп погонали (секцияли) МС (ЦНС) турдаги насоснинг ташки кўриниши




8 rasm. Kup.pogonali MS turdag'i nasosning buylama kesimi: 1-gidravlik kuch engillashtiruvchi lappak; 2-uzatkich; 2-nasos seksiyalari; 4-seksiyalarni sisib turuvchi bolt; 5-surgich; 6-yunaltiruvchi moslamalar; 7-podshipniklar

Qoldik o'qiy kuchlarni tayanch podshipniklari o'ziga qabul qiladi. Suyuqlik birinchi va ikkinchi g'ildiraklarda chiqqandan keyin uchinchi g'ildirakka tashqi quvur orqali uzatiladi (11- rasm). MD turdag'i nasoslarda birinchi ishchi g'ildiragi ikki tomonlama suyuqlik kiradigan shaklda bo'lganligi sababli yaxshi kavitations xususiyatlarga ya'ni so'rish tarmog'iда ortiqcha (6 m gacha) bosimga ega bo'ladi. Shuning uchun MD turdag'i nasoslar issiqlik elektr stansiyalari qozonlariga issiq suvlarni xaydash uchun qo'llaniladi.



*11 rasm. M va MD (SN) turdag'i markazdan qochma nasoslarda suyuqlik xarakati sxemasi:*

a-M nasosi; b-MD nasosi, 1,2,3,4-ishchi g'ildiraklarni tartib raqamlari




*2.11 rasm. M (SN) turdag'i nasos agregatining tashqi ko'rinishi: 4- qobig'ning pastki tayanch qismi; 5-qopqog'i; PT-tashqi uzatuvchi quvur; VP-so'rgich; NP-uzatkich*

M va MD turdag'i nasoslarda suyuqlikni ishchi g'ildirakka kirishi va undan olib ketishi spirapsimon kanallar orqali amalga oshirilganligi sababli gidravlik qarshiliklar kamayib, FIK yuqori bo'ladi. Qobig'i gorizontal tekislikda ochiladigan ushbu nasoslarning kamchiligi: qobig'ining tuzilishi murakkab, besunaqay va ulchamlari katta (2. P-rasm).

## Vertikal markazdan qochma nasoslar

Vertikal valli V turdag'i markazdan qochma nasoslar asosan bir g'ildirakli bo'lib, asosiy detallari va ishlash tarzi bir tomonlama suyuqlik kiradigan K turdag'i gorizontal valli nasosga o'xshaydi (2.12-rasm).

Nasos stansiyalarga o'rnatishda reja o'lchamlari kichik va ixcham bo'lganligi sababli suyuqlik uzatish  $Q = 1-35 \text{ m}^3/\text{s}$  va bosimi  $N=22-110 \text{ m}$  gacha bo'lgan yirik V turdag'i nasoslar ishlab chiqariladi va katta magistral kanallardagi hamda katta shaharlar suv ta'minoti tizimlaridagi nasos stansiyalarga o'rnatiladi.



*2.12 rasm.* V turdag'i vertikal valli markazdan qochma nasos: 1-ishchi g'ildirak; 2-spiralsimon bo'linma; Z-qovurg'ali konstruksiya; 4-zichlash-saqlash kapkasi; 5-val, b-sirpanma podshipnik; 7-himoya g'ilofi; S-qobiq qopqog'i; R-salnik; 10-tovon; 11-yostiqcha

V turdag'i nasosning kesimi 2.12-rasmida ko'rsatilgan. Suv 1 ishchi g'ildirakdan bir butun holda qo'yilgan 2 spiralsimon bo'linmaga chiqariladi va uzatkichiga xaydab beriladi. Ichki hosil bo'lувчи eguvchi momentni qabul qilish uchun qobiq baquvvat 3 qovurg'alar shaklida tayyorlanadi. Ishchi g'ildirak 1 pastki gardishida 0,8-1,2 mm ulchamdag'i tirqishda 4 zichlash - saqlash halqasi joylashgan. Nasosning 2 qopqog'iga maxkamlangan 6 yo'naltiruvchi sirpanma lignofol podshipnik radial

kuchlarni qabul qiladi va suv bilan sovitib turiladi. Podshipnik tepasiga 9 salnik joylashtirilgan. Nasos poydevorga 10 tovonlar va 11 yostiqchalar yordamida anker boltlari bilan maxkamlanadi. Nasosning aylanadigan detallari massasi va o'qiy xosil bo'luvchi kuchlarni elektr dvigatel podshipniklari va tayanchlari qabul qiladi.

## **1.2. NASOS STANSIYALARINING ELEKTRODVIGATELLARI VA ELEKTROENERGIYA TA'MINOTI**

Nasoslarni harakatga keltirish uchun elektr, ichki yonish, bug' va shamol dvigatellari qo'llanilishi mumkin. Hozirgi davrda asosan elektr dvigatellardan foydalaniladi. Chunki ular ixchamligi, vazni yengilligi, ishonchliligi, iqtisodiy samaradorligi, ish joyining pokizaligi, ishlatish va avtomatlashtirish osonligi bilan boshqa dvigatellardan ustun turadi. Ba'zi hollarda ko'chma kichik nasos qurilmalarida ichki yonish dvigatellari va yaylovlar suv ta'mnotinidagi quduqlardan suv chiqarish qurilmalarida shamol dvigatellari ham qo'llaniladi. Elektr dvigatel, uni boshqarish uskunalari va dvigateldan nasosga mexanik energiya uzatmasidan iborat majmua elektr - kuch uzatma deyiladi.

Nasos stansiyalarida gorizontal va vertikal valli uch fazali o'zgaruvchan tokli asinxron va sinxron elektr dvigatellardan keng foydalaniladi. Vertikal valli elektr dvigatel gorizontal vallidan qo'shimcha tayanch va tirkak yoki yo'naltiruvchi podshipniklar o'rnatilishi bilan farq qiladi.

Nasos stansiyalarida qo'llaniladigan elektr dvigatellarga quyidagi o'ziga xos talablar qo'yiladi: a) dvigateli yurgizish paytida to'la kuch bilan ishga solish zarurligi; b) tez-tez qayta to'xtatib - yurgizish imkoniyatiga ega bo'lishi; v) agregatni biror sababga ko'ra to'xtatish paytida elektr dvigatel valini uzoq muddat (5 minutdan ortiq) teskari aylanishiga ruxsat etilishi.

**Asinxron elektr dvigatellar.** Sanoatda asinxron elektr dvigatellarning ikki xil turi ya'ni faza rotorli va qisqa tutashuv rotorli turlari ishlab chiqariladi. Faza rotorli asinxron elektr dvigatellar elektr tormog'iga qarshilik reostati yordamida ulanadi va yurgizish paytida kamroq tok kuchi talab qiladi. Lekin ularning yurgizish

sxemasi va tuzilishi murakkab, narxi esa qimmat. Shu sababli ular ishlab chiqarishda kam qo'llaniladi. Qisqa tutashuv rotorli asinxron dvigatellarning tuzilishi sodda, foydalanish va avtomatlashtirish qulay, o'lchamlari kichik va narxi arzon bo'lganligi uchun nasos stansiyalarda va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida keng foydalaniladi. Lekin qisqa tutashuv rotorli asinxron dvigatellarning yurgizish paytidagi buralish momenti va tok kuchi me'yoriy ish tartibidagi qiymatidan 5...7 marta ortiq bo'ladi. Bundan tashqari elektr dvigatel validagi iste'mol quvvati ortishi bilan uning aylanish chastotasi kamayadi ya'ni rotor va stator magnit maydoni orasida «siljish» ortadi. Ularni yurgizish paytidagi tok kuchini kamaytirish uchun turli usullardan foydalaniladi: a) stator cho'lg'amlarini ishga solish paytida «yulduzcha» sxemasidan me'yoriy aylanish chastotasiga erishganda «uchburchak» sxemasiga qayta ulash; b) stator zanjiriga qo'shimcha qarshilik kiritib pog'onali tarzda ishga solish; v) ishga solish davrida qo'llaniladigan avtotransformatorlardan foydalanish. Lekin bu usullar qo'shimcha jihozlar o'rnatishni talab qiladi va avtomatlashni qiyinlashtiradi. SHuning uchun kichik quvvatlari (100 kVt gacha) elektr dvigatellarni bevosita qo'shimcha jihozlarsiz ishga solish ruxsat etiladi. Hozirgi paytda sanoatda asinxron dvigatellarning quyidagi turlari ishlab chiqariladi: gorizontal valli A 2 va AO2 (quvvati 100 kVt gacha), A va AK (quvvati 100...400 kVt), A3 va AK3 (quvvati 400 kVt dan ortiq), AN va AKN (quvvati 200...2000 kVt) seriyali elektr dvigatellar; vertikal valli VAN (quvvati 315...2500 kVt, aylanish chastotasi 375...1000 ay/min, 6 kV kuchlanishli) seriyali elektr dvigatellar [29].

Nasosning bosimi va suv uzatishini rostlash uchun ikki tezlikka ega bo'lgan 6 kV kuchlanishli, quvvati 500...1400 kVt, aylanish chastotasi 500/300; 500/375 yoki 375/300 ay/min ga teng DVDA seriyali vertikal asinxron dvigatellardan ham foydalanish mumkin. Juft qutublari sonini o'zgartirish yo'li bilan aylanish chastotasini rostlovchi elektr dvigatellarning boshqa turlari ham ishlab chiqarilgan.

**Sinxron elektr dvigatellarni** uzoq muddat to'xtovsiz ishlaydigan yuqori quvvatlari nasoslarni harakatga keltirishda qo'llash maqsadga muvofiqli. Bu turdag'i elektr dvigatellarning quvvat koeffitsenti ( $\cos\varphi = 1$ ) yuqori va elektr tormog'inining

quvvat koeffitsentini yaxshilaydi, o'zgarmas aylanish chastotasiga ega va tarmoqdagi kuchlanish o'zgarsa ham bir tekis ishlaydi. Gorizontal valli nasoslar uchun SD, SDN, SDN3 seriyali sinxron eletr dvigatellar qo'llaniladi. Rossiyaning «Uralelektrotyajmash» zavodida vertikal valli nasoslar uchun quvvati 630...12500 kVt, kuchlanishi 6 va 10 kV bo'lgan VSDN va VDS seriyali sinxron elektr dvigatellar ishlab chiqariladi. Sinxron elektr dvigatellar tuzilish va yurgizish sxemasi murrakab va narxi qimmat bo'lishiga qaramay amaliyotda keng qo'llaniladi.

Hozirgi davrda asinxron usulda ishga tushiriladigan qo'zg'atuvchi yordamida yoki statistik tiristorli qo'zg'atuvchi bilan yurgiziladigan sinxron elektr dvigatellar ishlab chiqarilmoxda. Tiristor qo'zg'atuvchi qo'llangan elektr dvigatellar tok kuchini rostlash, qurilmani ta'mirlash va xizmat ko'rsatish xarajatlarini iqtisod qilish, elektr energiya sarfini kamaytirish imkoniyatini beradi.

Ishlash sharoitiga bog'liq ravishda elektr dvigatellarni ochiq havoda ishlaydigan, namlikdan himoyalangan, germetik va portlashga xavfsiz turlari ishlab chiqariladi.

**Elektr dvigatellarni tanlash.** Elektr dvigatelni tanlashda uning va nasosning aylanish chastotasi va validagi quvvati mos tushishiga e'tibor beriladi.

Elektr dvigatelning quvvati (kVt) quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{dv} = \frac{N_{\max} K}{\eta_{\delta c}},$$

bu yerda  $N_{\max}$  - nasos validagi maksimal talab qiladigan quvvati (kVt);  
uning

qiymati nasosning xarakteristikasidan  $N_{x,\max}$  va  $N_{x,\min}$  qiymatlar asosida tanlab olinadi yoki (1.20) formula bilan  $N_{x,\max}$ ,  $Q_{x,\min}$  va  $N_{x,\min}$ ,  $Q_{x,\max}$  qiymatlar asosida hisoblab topiladi;  $K$ - zahira koeffitsiyenti, nasosning quvvati 50 kVt gacha bo'lganda  $K= 1,3...1,2$ ; 51...100 kVt bo'lsa,  $K=1,2...1,1$  va 100 kVt dan ortiq bo'lsa,  $K= 1,1...1,05$  qabul qilinadi;  $\eta_{uz}$  uzatmaning FIK; nasos va dvigatel vallari bevosita yoki lappakli elastik mufta yordamida

ulanganda  $\eta_{uz} = 1$  qabul qilinadi.

Elektr dvigatellar katalogidan aylanish chastotasi  $n_dv$  (ay/min) nasosning aylanish chastotasi  $n_n$  (ay/min) ga teng va quvvati (2.14) formula bilan aniqlangan miqdorga mos keluvchi gorizontal yoki vertikal valli elektr dvigatelning turi tanlab olinadi. Elektr dvigatelni tanlashda tok turi, chastotasi, kuchi va kuchlanishi, elektr energiya manbasining dvigatelni yurgizish holatiga qo'yadigan talablari, atrof muhit sharoiti (harorat, namlik, changlik, shamollatish), nasosning yurgizish, me'yoriy va maksimal aylanish momentlari dvigatelning mos aylanish momentlaridan kam bo'lish holatlari taxlil qilinishini zarur.

Elektr dvigatelinining aylanish momentlari ularning kataloglarida yoki pasportida beriladi. Katalogdagi elektr dvigatellarning me'yoriy quvvati  $35^0S$  havo haroratida ishlashi uchun keltirilgan. Agar havo harorati  $35^0S$  dan yuqori bo'lsa, uning me'yoriy quvvati quyidagi  $K_t$  harorat koeffitsentiga ko'paytirib, pasayish miqdori aniqlanadi:

- agar  $t^0 = 40^0S$  bo'lsa,  $K_t = 0,95 (0,95);$
- agar  $t^0 = 45^0S$  bo'lsa,  $K_t = 0,9 (0,875);$
- agar  $t^0 = 50^0S$  bo'lsa,  $K_t = 0,85 (0,75).$

Eslatma: harorat koeffitsenti  $K_t$  ning qavs ichidagi qiymatlari sinxron elektr dvigatellar uchun berilgan.

**Elektroenergiya ta'minoti.** Elektr dvigatellarni tanlashda elektr energiya ta'minoti manbasining texnik ko'rsatkichlariga va talablariga e'tibor berish zarur. Agar nasos stansiya quriladigan tumanda past kuchlanishli pasaytiruvchi podstansiya joylashgan bo'lsa, nasos stansiyasini unga ulash mumkin. Agar nasos stansiya yuqori kuchlanishli elektr tarmog'idan (LEP) tok olsa, uning binosi atrofiga pasaytiruvchi transformator podstansiyasi quriladi. Uning tarkibiga kuch trasformatorlari, boshqarish va energiya taqsimlash jihozlari va h.k. kiradi. Nasos stansiyasiga yuqori kuchlanishli (1000 V yuqori) dvigatellar o'rnatilsa, u holda ichki ehtiyojlarni qondirish (yordamchi uskunalar dvigatellari, yoritish, isitish va

h.k) uchun qo'shimcha kichik transformator o'rnatiladi. O'ta muhim vazifani bajaruvchi va yuqori ishonchlilik darajasidagi I va II toifali nasos stansiyalar alohida mustaqil ikkita manbadan elektr energiya bilan ta'minlanadi.

Elektr energiyasini qabul qilish va taqsimlash uchun xizmat qiladigan elektr qurilmasi - yuqori kuchlanish taqsimlash qurilmasi (RU) deyiladi. Taqsimlash qurilmasi tarkibiga kommutatsion va himoyalash apparatlari, o'lchov asboblari, bog'lovchi shinalar va yordamchi jihozlar kiradi.

Yuqori kuchlanishli taqsimlash yashiklarida asosan motorlar fiderlariga elektr energiyasini taqsimlashga xizmat qiluvchi jihozlar majmuasi joylashtiriladi (ya'ni moyli o'chirgich, ajratuvchi, o'lchov transformatorlari va o'lchov asboblari (vol'tmetr, ampermetr), saqlagichlar, signal yoritgichlari). Taqsimlash shitlari 500 V gacha kuchlanishli energiyani qabul qilish va taqsimlash uchun xizmat qiladi. Unga apparatura, nazorat o'lchov asboblari va ularga ta'luqli jihozlar joylashtiriladi.

Nasos stansiyalarning elektr energiya ta'minoti, elektr uskuna va jihozlari bo'yicha hisoblash, ularni yig'ish va foydalanish ishlarini elekrotexnika sohasi mutaxassislari bajaradilar. Bu hisoblar texnik-iqtisodiy taqqoslash asosida amalga oshiriladi.

### **1.3. Nasoslarni birgalikda ishlashi. Nasoslarni parallel va ketma-ket ulash**

#### **Avtomatlashtirishning prinsipial sxemasini ishlab chiqish**

Prinsipial elektr sxemalar (PES) uskunalarning, apparatlar va qurilmalarning to‘la tarkibini, shuningdek ular orasidagi aloqalarni belgilaydi. Bunday uskunalar, apparatlar va qurilmalar boshqarish, rostlash, himoyalash, o‘lchash va signalizatsiya masalalarini yechishni ta’minlaydi.


Prinsipial elektr sxemalarda barcha apparatlar (rele, ishga tushirgich, o‘zgartirgich) o‘chirilgan holatda aks ettiriladi. Agar biror apparatni yoqilgan holatda aks ettirish zarur bo‘lsa, unda uni chizmaning maydonida ko‘rsatish kerak. Elektr sxemalar alohida jihozlar va avtomatlashtirish tizimining uchastkasi (masalan, nasosni boshqarish sxemasi, reaktor temperaturasini boshqarish sxemasi va h.k.) uchun ishlab chiqiladi.

Prinsipial elektr sxemalarda elementlar ikkita usulda aks ettirilishi mumkin: hamkor usul va ajratilgan usul.

Hamkor usulda elementlarning yoki qurilmalarning tarkibiy qismlari sxemada bevosita bir-biriga yaqin holda tasvirlanadi. Ajratilgan usulda elementlarning yoki qurilmalarning tarkibiy qismlari ko‘rgazmali bo‘lishi uchun sxemaning turli joyida tasvirlanadi.

Prinsipial elektr sxemalarni o‘qish oson bo‘lishi uchun quyidagilarga etibor berish kerak:


1. Imkoniyati bo‘lgan barcha zanjirlar raqamlanadi.
2. Belgilangan relening pastida jadval joylashtiriladi va unda kontaktlarning joylashgan o‘rni ko‘rsatiladi.
3. Kontakt aks ettirilgan pozision belgilashning oldida zanjirning raqami ko‘rsatiladi.



13-rasm. Ajratilgan usulda bajarilgan prinsipial sxema

Ajratilgan usulda tayyorlangan sxemada (23-rasm) uchta kichik jadvallar keltirilgan va ular *KK1*, *KK2*, *KM* o‘ramalarning (obmotka) belgilari ostida joylashtirilgan.

Releli avtomatika sxemalarini qatorli usulda bajarish tavsiya etiladi: bitta zanjirga tegishli qurilmalar va ularning tarkibiy qismlari ketma-ket birin-ketin tasvirlanadi, alohida zanjirlar uchun esa oldiga parallel ravishda gorizontal yoki vertikal qator qo‘rinishida tasvirlanadi. Qatorlar arab raqamlari bilan raqamlanadi (24-rasm).



14-rasm. Releli avtomatika sxemasi

Odatda, texnologik jihozlarni boshqarish sxemalarini (ijrochi mexanizmning elektrprivodi) mahalliy, masofaviy va avtomatik tarzda boshqarish nazarda tutilgan. Mahalliy boshqaruvi operator tomonidan boshqaruvi organlari yordamida amalga oshiriladi (masalan, mexanizmdan bevosita yaqinda turgan signalli postlar). Masofaviy boshqarish avtomatlashtirish ob’ektining shchitlaridan va pultlaridan amalga oshiriladi. Bunday holda texnologik mexanizmlar operatorning

ularni ko‘rish diapazonidan chetda bo‘ladi va ular “Yoqilgan” -“O‘chirilgan”, “Ochiq” -“Yopiq” signallar orqali nazorat qilinadi.

Avtomatik boshqarish dasturiy vositalar (kontroller) asosida, shuningdek regulyator yordamida ta’minlanadi va ular berilgan funksional qonuniyatlar asosida elektroprivodni avtomatik boshqarishni nazarda tutadi.


Elektroprivodni boshqarish turi (qo‘lda yoki masofaviy) boshqarish zanjiri qayta yoqgich (pereklyuchatel) yordamida tanlanadi.

Malakaviy ishda avtomatlashirishning prinsipial sxemasini ishlab chiqish bo‘yicha nasosning elektr dvigatelini boshqarish sxemasini va unga tegishli bo‘lgan elementlar tarkibini ko‘rib chiqamiz (25-rasm). Sxemada ko‘riladigan barcha elementlar bir va ikki belgili harfiy kodlarga ega. Masalan: dvigatel *M*, kontaktor *KM1*, pereklyuchatel *ISA1*, signalli lampochka *IHL1* va h.k.

Ulagichli simlar arab raqamlari bilan belgilangan, shu bilan birga umumiyluqtaga ega bo‘lgan simlarning tartib raqamlari bir xil. Masalan, *ISB1* tugma *ISB2* va *KM1* kontaktoring oxirgi qo‘sishcha kontakti, ya’ni *KM1.1* bilan bog‘lanishi 102 soni bilan belgilangan.

*KM1* magnit ishga tushirgichning o‘ramasi (katushkasi) ishchi kontaktlarni yakunlaydi. Shu yo‘l orqali *ISB2* tugma bosilganda *M* dvigatelda kuchlanish keladi. Shu bilan birga, *KM1* kontaktor o‘zining shaxsiy kontakti bo‘lgan *KM1.1* orqali blakirovkalanadi.

*M* dvigatel, *ISB1* tugma bosilganda o‘chadi. Qachonki, *ISA1* pereklyuchatel *R* holatda bo‘lganda ushbu amallarni faqat qo‘l rejimida amalga oshirish mumkin.



**15-rasm. Prinsipial elektr sxemaga misol**


**Elementlar va qurilmalar tarkibi**

<b>Pozis ion belgil anishi</b>	<b>Nomlanishi</b>	<b>oni</b>	<b>Izoh</b>
	Mexanizmda		
M	Asinxron dvigatel 3f, tipi MDXMA90, 1,5kVt. 1410 min-1, 380V. 3,5A		
	Mahalliy boshqaruv shchitiga (MBSh)		
QF	Avtomatik o'chirgich TemDin 3C, I=10A; U=380V		
KM1	11MS6.10 turdagি kontaktor. I=6A; U=220V, 1almasht, qo'shimcha kontakt		
KK1	Issiqlik relesi, turi 11RF9.5, I=3-5A		
1QF1	Avtomatik o'chirgich, tipi TemDin 1C, I=1A; U=220V		
1SB1	Boshqarish knopkasi, tipi 8LM2TB 104.1 o'lchamli kontakt, qizil rangli yitargich		MBSh1 eshigiga
1SB2	Boshqarish knopkasi, tipi 8LM2TB 102.1.1 yopiq kontur, qora rangli yitargich		MBSh1 eshigiga
1SA1	Pereklyuchatel 3 pozisiyali, stabilli, tipi 8LM2TS130		MBSh1 eshigiga
1HL1	Yorug'lik sinlalla ko'karmatura, tipi 8LR2TIL223.1, 220V o'zgaruvchan tok		MBSh1 eshigiga

ISA1 pereklyuchatelnинг (boshqarishning avtomatlashtirilgan rejimi) A holatda nasosning elektr dvigateli avtomatik tarzda K3 rele kontaktlar orqali ishga tushadi. K3 rele kontaktlari dasturlanuvchi mantiqiy koniollerlar yordamida boshqariladi va u prinsipial sxemaning boshqa joyida ko'rsatilgan. Uni kontakt atrofidagi puktlar chiziq va boshqarish shchiti (SHA) prinsipial sxemasining aniq varag'idagi ko'rsatilgan nomer ko'rsatib turadi.

Ventilyator dvigateliga katta yuklama tushganda KK1 issiqlik relesi ishga tushadi. Uning yakunlovchi kontakti KM1 kontaktorning o‘ramasiga (katushkasiga) kuchlanishni berish jarayonini to‘xtatadi.

Prinsipial sxema bilan elementlar tarkibining aloqasi “Elementlar va qurilmalar tarkibi” nomli spesifikatsiyaning pozision belgilanishi orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, “Nomlanishlar” bo‘limida elementning nomi, turi va markasidan tashqari, qurilmaning yoki elementning asosiy texnik xarakteristikalarini keltiriladi. Masalan, M dvigateli uchun nominal quvvat, aylanish chastotasi, kuchlanish va tok ko‘rsatiladi.



16-rasm. Prinsipial sxemaning umumiy ko‘rinishi

### 2.3. Tashqi simlarni (provodkalarni) ulash sxemasini ishlab chiqish

Tashqi simlarni ulash sxemasi – bu kombinasion sxema bo‘lib, unda texnologik va muhandislik qurilmalarida o‘rnatilgan asboblar va avtomatlashtirish vositalari orasidagi aloqalar tasvirlanadi. Sxemalarda shchitdan tashqari va shchitlarning o‘zida, shuningdek shchitlar va pultlar orasidagi aloqalar ko‘rsatiladi.

Tashqi simlarni ulash sxemalari qurilmalarning (agregatlarning) tarkibiy qismlarini simlar, kabellar, jgutlar yoki quvurlar (ularning ichidan simlar o‘tadi) o‘zaro ulanish tartibini belgilaydi. Bunday sxemalar shchitlar va pultlarning sxemalaridan farqli ravishda masshtabga rioya qilinmagan holda chiziladi.

Texnik vositalar uchun sxemada elektr simlarini ulanishi keltiriladi va sodda ko‘rinishda to‘rtburchak shaklida tasvirlanadi. Qurilmalarning kirish va chiqish elementlarini (kontaktlarini) aylana shaklida ko‘rsatish kerak.

Umumiy holda ulanish sxemalarida quyidagilar bo‘lishi kerak:


- 1.Birlamchi asboblar
- 2.Shchitdan tashqarida bo‘lgan asboblar
- 3.Shchitlar (taqsimlovchi kolodka, shchitdagi DIN-reyka)
- 4.Tashqi elektrik va quvurli simlar
- 5.Avtomatlashtirish tizimini yerga ulanishi bo‘yicha himoya sxemasi
- 6.Texnik talablar
- 7.Elementlar tarkibi

Tashqi elektrik simlar qalin uzluksiz chiziqlar bilan ko‘rsatiladi. Har bir sim uchun chiziq ostida uning texnik xarakteristikalari (turi, kabel markasi) ko‘rsatiladi. Kabellarga va simlarning jgutlariga tartib raqam beriladi. Agar kabel karobaning ichida bo‘lsa, unda “K” harfi qo‘shiladi. Tashqarida joylashgan simlar va ularning ulanishlarini karobada joylashtirish kerak (masalan, quvur, kanal, qayiq va h.k.). Himoyalangan va izolyatsiyalangan kabellar bundan mustasnodir.

Tashqi simlar sxemalari quyidagi to‘plangan materiallar asosida tayyorlanadi:

- 1.Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish sxemalari.
- 2.Prinsipial elektrik, pnevmatik, gidravlik sxemalar.
- 3.Loyiha joriy etilgan avtomatlashtirish vositalari va asboblarni ekspluatatsiya qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan instruksiyalar
- 4.Texnik, santexnik, va energetik joylashuv chizmlari, shuningdek qurilish chizmlari (tunellar, kanallar, estakadalar).

Sanoat mashinalarida kojuxlar (qoplamlar) va alohida elementlarning ulanish sxemalarini klassik usulda (17-rasm) aks ettirish kerak (qabul qilingan belgilashlar MEK 60364-3-523 talablariga mos keladi).




17-rasm. Kabel va simlarni joylashtirish usullari

V1-simlarni himoyalash uchun koroba va kabel tashuvchi kanallar; V2-ko‘p qavatli simlarni himoyalash uchun karoba va kabel tashuvchi kanallar; S-karobasiz va kanalsiz kabellarni joylashtirish usuli; Ye-ochiq gorizontal yoki vertikal trassalarda kabellarni joylashtirish usuli

O‘zgartirgichlar (termoelektrik, qarshilik termoo‘zgartirgichlar), shuningdek pnevmatik ijrochi mexanizmlar uchun bunday asboblarni avtomatlashtirish sxemalarida ularni qabul qilingan grafik belgilari qo‘llaniladi.

Chizmaning pastki qismida shchitdan tashqarida o‘rnatilgan asboblar hamda boshqa texnik vositalar joylashadi. Loyihaviy qarorlar qabul qilingan hollarda shchitda kontakt guruhli DIN-reyka ko‘rsatiladi (18-rasm).




18-rasm. Tashqi simlar sxemasining fragmenti

Chizma maydonining yuqori va pastki qismlarida jadval joylashganda joriy boshqarish shkaflari to‘rtburchak shaklida chizmaning o‘rtasida joylashtiriladi. Agar jadval faqat yuqorida joylashgan bo‘lsa, unda shkafni chizma maydonining pastki qismida ko‘rsatish kerak. To‘rtburchak ichida chizmaning nomi ko‘rsatiladi.

Shkafni ulash ko‘rsatilgan sxemada quyidagi ma’lumotlar keltiriladi:

- simlar ulangan qurilmalarning tasviri (masalan, DIN-reyka, shchit asboblari kolodkalari);
- kabellarning ulanishi, privodlar va quvurlar hamda ularning belgilanishi;
- tashqi simlar sxemasidagi kabellarning va quvurlarning qismlari.

Avtomatlashtirilgan tizimlarda maydon darajali jihozlarni boshqarish shkafi sxemasi (19-rasm) va tashqi simlarning kommunikasion shkafi qo‘llaniladi.



19-rasm. Tashqi simlarni ulash sxemasiga misol

Simlarning raqami sxemaning ichida ko‘rsatiladi. Kuchlanish manbai elektr tarmog‘ining №1 kabeli orqali amalga oshiriladi (markasi VVT, beshsimli, kesmasi 1,5mm<sup>2</sup>, 5m. uzunlikdagi plastmassali quvurda yotqizilgan). M elektrodvigatel mahalliy boshqarish quvuri shchiti bilan (SHMU1) va PV 4x1,5 (2K) turidagi kabel orqali ulangan. Kabel PV markali misdan tayyorlangan, kesmassi 1,5mm, 4m. uzunlikdagi plastmassali karobada yotqizilgan.

Dvigatejni masofadan turib markaziy boshqarish shchitidan (SH) boshqarish KVVT markali to‘rtsimli nazorat kabeli orqali amalga oshiriladi.

Malakaviy ishda texnologik jarayonni avtomatlashtrishning funksional sxemasidan kelib chiqqan holda, tashqi simlarni ulash sxemasini keltirish va tashqi simlarni kommunikasion shkafga (shchitga) ulash sxemalarini ishlab chiqish talab etiladi

## II BOB. Asosiy qism.


### 2.1. “Alisher Navoiy” nasos stansiyasi sxemasi va tasnifi

Sug’orishga mo’ljallab 1982 yilda ishga tushirilgan “Alisher Navoiy” nasos stansiyasi Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi Fayzulla Allayev hududida joylashgan. Nasos stansiyasi suvni Amu-Buxoro mashina kanalidan suv olish inshootisiz oladi va tumanning 27200 ga maydonini sug’oradi. U quyidagi inshootlardan tarkib topgan: suv keltirish kanali, avankamera, suv qabul qigich, nasos stansiya binosi, bosim quvurlar tizimi, bosimli suv chiqarish inshooti. Loyihaviy suv uzatishi  $42,0 \text{ m}^3/\text{sek}$ , geometrik suv ko’tarish balandligi 20,0 m,

manometrik napori 22,3 m ni tashkil qiladi. Nasos stansiyasiga jami 12 ta 48-Д-22 nasos agregatilari o’rnatilgan bo’lib shundan 3 tasi zaxira nasos hisoblanadi.

Avankamera suv bilan to’ldiriladi so’rish quvuridagi zadvezka ochiladi vakum nasos yordamida nasos kameralari suvgaga to’diriladi va nasos ishga tushiriladi. Bino xarorati  $20 \text{ C}$  ushlab turilishi lozim.

#### “Alisher Navoiy” nasos stansiyasining texnologik jarayon sxemasi



20-rasm “Alisher Navoiy” nasos stansiyasi sxemasi

## **“Alisher Navoiy” nasos stansiyasi parametrlari**

O‘rnatilgan nasoslarning markasi D 12500-24 (48D-22).

Soni 12 (9+3) dona

Ishlab chiqarilgan vaqtı 1982 yil.

Samarali suv sarfi 3,4- 3,5 m<sup>3</sup>/sek.

Ish g‘ildiragi diametri 1180 mm.

Nasos valining aylanishlari soni – nominal 500 ayl/min, amalda 530 ayl/min.

Nasos validagi quvvat 1250 kVt.

Foydali ish koeffitsiyenti 87 %.

Puxsat etilgan kavitatsiya zaxirasi –nominal 3,2 m.

Asosiy yurituvchi eletrodvigatelining markasi SNDZ-16-12 .

Samarali quvvati 1250 kVt.

Valining aylanishlari soni 500 ayl/min.

Kuchlanishi 6/04 kV.

Foydali ish koeffitsiyenti 95,0 %.

Quvvat koeffisienti ( $\cos \phi$ ) 0,9.

Chastotasi 50 Gts.

Stator va rotor chulg’amlri himoyasining sinfi V.

Stator fazalari chulg’amlarining ulanishi – yulduzcha.

Nasosning og’irligi – 7000 kg.

Elektrodvigatelning og’irligi 7350 kg.

### **2.2. Nasos stansiyasini avtomatlashtirish.**

Umuman nasos stansiyalari belgilangan ish rejimlari asosida avtomatlashtiriladi. Ko’p hollarda stansiyalarni ishini qisqa muddati kuchlanishi yo’qotishlari natijasida qayta ishga tushirish tanlangan agregatlarni ishga tushirish rezervni qo’shish va boshqa vazifalar uchun avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Nasos agregetlari va uskunalari avtomatik ravishda ishga tushirilganda boshqaruv signali har bir agregat va uskunaga alohida mexanizmlarni ketma ket

ishga tushiradi, to'xtatadi va normal ish holatlarini ta'minlaydi. Agregatlarni avariya holatlarida ishdan to'xtab qolishi, to'liq ishdan chiqish holatlarini avtomatik himoyalash va signallash vositalari bilan ta'minlanadi. Bundan tashqari nasos stansiyalarida bir qator markazlashgan uskunalar va suv ta'minoti, vakuum tizim, ventilyatsiya, isitish tizimi ham avtomatlashtirilishi zarur.

Avtomatlashtirilgan nasos stansiyalarida nasos agregatlari va markazlashtirilgan uskunalar operativ xizmat xodimlari tomonidan beriluvchi birlamchi impulsslardan asosida boshqariladi. Bu holda aloxida uskunalar avtomatik rejimda ishlaydi. Bunday uskunalar soni ekspluatatsiya rejimlari asosida aniqlanadi.

Programmali boshqaruvda avtomatlashtirilgan tizimdan farqli ravishda xizmatchi xodimlar aloxida agregatlarning ishini boshqarmaydilar. Programmali qurilma ishga tushgandan so'ng stansiya avtomatik rejimda ishlay boshlaydi.

Berilgan har bir nasos stansiyasi sug'orish tizimining avtomatlashtirish darajasi va texnologik ish tartibiga ko'ra yarim avtomatik, programmali va avtomatik ish rejimida ishlashi mumkin.


